

XITOIY TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘RGATISHDA VAQT-MIQDOR TO‘LIQLOVCHI (时量补语) LARINI XATO GAPLAR ORQALI TAHLIL QILISH



<https://doi.org/10.5281/zenodo.6653496>

Tilovov Ozod Zairjonovich

SamDCHTI “Yaqin sharq tillari” kafedrasida o‘qituvchisi

Aynur Abiden qizi

R.B. Sulaymonov nomidagi sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot institute, PHD

ANNOTATSIYA

“补语” zamonaviy xitoy tilida gap bo‘laklaridan biri hisoblanib, o‘zbek tilidan farqli ravishda, xitoy tilida gap bo‘laklari olti katta guruhga bo‘linadi. O‘z navbatida “补语” quyidagi guruhlarga bo‘linadi: Natija to‘liqlovchi; yo‘nalish to‘liqlovchi; potensial, imkoniyat to‘liqlovchi; modal to‘liqlovchi; daraja to‘liqlovchi; vaqt-miqdor to‘liqlovchi; predlog birikmali to‘liqlovchi. Demak, ko‘rinadiki, vaqt-miqdor to‘liqlovchilari ham zamonaviy xitoy tilida muhim grammatik shakl bo‘lib, xitoy tilini chet tili sifatida o‘qitishda muhim grammatik nuqta hisoblanadi. Ushbu maqolada filolog talabalar vaqt-miqdor to‘liqlovchilarini o‘rganishda yuzaga keladigan muammolar, yo‘l qo‘yiladigan xatolarni o‘rganadi hamda bu muammolarga tegishli yechimlarni ilgari suradi va vaqt-miqdor to‘liqlovchilarining bir nechta turli grammatik shakllarini sodda, tushunarli qilib umumlashtiradi.

Kalit so‘zlar: 离合词; 对外汉语; 时量补语; 偏误分析

ABSTRACT

“补语” it is one of the parts of speech in modern Chinese, in contrast to Uzbek, In Chinese, parts of speech are divided into six major groups. In turn “补语” are divided into the following groups. The result is complementary; route complement; potential, opportunity complement; modal complement; degree complement; time-consuming replenishment; prepositional participle. So, it seems that time-quantity complements are also an important grammatical form in modern Chinese, an important grammatical point in teaching Chinese with a foreign language. This article discusses the problems that philologists face in the study of time-quantity complements, learns the mistakes made and suggests solutions to these problems and

simplifies several different grammatical forms of time-quantity complements, summarizes clearly.

Keywords: 离合词; 对外汉语; 时量补语; 偏误分析

АННОТАЦИЯ

“补语” это одна из частей речи современного китайского языка, в отличие от узбекского языка, в китайском языке части речи делятся на шесть большой групп. В свою очередь «补语» делятся на следующие группы: Результат дополняет; дополнение строки; потенциал; возможность дополнения; модальное дополнение; дополнение степени; пополнение количества времени; предложное причастие. Ну, это похоже, дополнения «время-количество» также являются важной грамматической формой в современном китайском языке, является важным грамматическим моментом в обучении китайскому языку как иностранному. В данной статье рассматриваются проблемы, с которыми сталкиваются студенты-филологи при изучении взаимодополняемости время-количество, узнает о допущенных ошибках и предлагает решения этих проблемы обобщает несколько различных грамматических форм дополнения «время-количество» простым и ясным способом.

Ключевые слова: 离合词; 对外汉语; 时量补语; 偏误分析

KIRISH

Tilning uchta elementidan biri sifatida grammatika tilning “qurilish materiallari” hisoblanadi. Shu sababli, xitoy tili grammatikasini yaxshi o‘rganish mumkinmi yoki yo‘qmi, xitoy tilini o‘rgangan-o‘rganmaganligini tekshirish mezonlaridan biriga aylanadi, bu ham grammatikani o‘qitishda, xitoy tilini chet tili sifatida o‘qitishning ustuvor yo‘nalishiga aylantiradi. Grammatik elementlarning muhim qismi sifatida vaqt-miqdor to‘liqllovchisi ham asosiy nuqta sifatida namoyon bo‘lishi kerak. Vaqt-miqdor to‘liqllovchisini o‘rganishda ko‘pchilik chet elliklar xatoga yo‘l qo‘yishadi, qanday xatolar bor? Xatolar qanday toifalarga bo‘linadi? Bu qanday paydo bo‘ladi? Temporal to‘ldiruvchining grammatik nuqtasini qanday o‘rgatish kerak? Ushbu maqolada vaqt-miqdor to‘liqllovchisi xatolarining sabablari, xatolar tasnifi va vaqt-miqdori to‘liqllovchilarini o‘qitish loyihasining uchta muammosi tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Vaqt-miqdor to‘liqllovchisi hamda xatolarni tushuntirish

Vaqt-miqdor to‘liqllovchilari miqdor to‘liqllovchilarining bir turi bo‘lib, vaqtni ifodalovchi hisob so‘zlar va sonlar qo‘shilishidan tarkib topgan miqdoriy birikmalar

vazifasini, yoki miqdoriy otlar vazifasini bajaradi. Bunda harakatning davom etgan vaqtini, ya’ni vaqt miqdorini ifodalaydi. Masalan “住了三天、等了一个钟头”; Ba’zan, bu harakat amalga oshirilgandan keyingi butun vaqtni ham anglatadi, masalan “成立了五年了, 挂了一天” kabilar. Bu esa vaqt-miqdor to‘liqlovchilari bilan birga keladigan fe’llarning davom etish kerakligini talab qiladi. Boshqa tomondan Vaqt-miqdor to‘liqlovchisining grammatik tuzilishini o‘zaro bog‘langan fe’lning 离合词 (ajralib birikuvchi so‘z)mi yoki emasligiga ko‘ra ikki shaklga bo‘lish mumkin, masalan: “我画画儿画了一个小时=我画了一个小时的画儿”. Chunki bu o‘rinda “画画儿” 离合词 (ajralib birikuvchi so‘z) hisoblanadi, lekin boshqa tomondan “我锻炼了一个小时” ni “我锻炼一个小时的炼” shaklida berib bo‘lmaydi. Bu ham vaqt-miqdor to‘liqlovchisining o‘ziga hos xususiyati hisoblanadi. 离合词 (ajralib birikuvchi so‘z) va vaqt-miqdor to‘liqlovchilarini birgalikda o‘qitish e’tibor qaratish kerak bo‘lgan muammo hisoblanadi.

Yo‘l qo‘yingan xatolar tahlili haqida.

Yo‘l qo‘yingan xatolar - bu ikkinchi tilni o‘rganuvchining o‘rganilayotgan tilni yomon o‘zlashtirib olishi natijasida yuzaga keladigan muntazam xato bo‘lib, u o‘rganilayotgan tilning to‘g‘ri yo‘lidan chetga chiqaradi va ikkinchi tilni o‘rganuvchilarning maqsadli tilda ifodalashda til qobiliyati va darajasini aks ettiradi. Masalan, ona tilisi ingliz tili bo‘lmagan ingliz tili o‘rganuvchilar ko‘pincha ingliz tilidagi otlarning ko‘plik shaklini ifodalashda qachon “s” qachon “es” qo‘yishni bilmagani kabi, xitoy tilini o‘rganuvchilar ham shu turdagi xatolarga yo‘l qo‘yishadi. Masalan, “真+形容词” shaklini aniqlovchi vazifasida qo‘llab xatoga yo‘l qo‘yishadi, shu tarzda “你是一个真漂亮的姑娘” kabi xatolar kelib chiqadi. Aslida “真+形容词” shakli xitoy tilida mutlaqo aniqlovchi vazifasida kelmaydi. Bunday turdagi xatoliklarni o‘rganuvchi anglab yetishi va uni tuzatishi odatda qiyin jarayon hisoblanadi, shuning uchun bir xil xato ko‘p marta takrorlanadi.

Yo‘l qo‘yilgan xatolarning turlari.

Yo‘l qo‘yilgan xatolar tasnifiga kelsak, ularni quyidagicha turlarga bo‘lishimiz mumkin: 1) yo‘l qo‘yilgan xatoning darajasiga qarab umumiy xato va lokal xatolarga bo‘lishimiz mumkin. Umumiy xato deganda jumla shakli, tegishli so‘zlar, so‘z tartibining buzulishi kabilarni noto‘g‘ri ishlatish tushuniladi, bu esa butun jumlaning noaniq bo‘lishiga olib keladi, lokal xatolar boshqalar tomonidan jumlaning umumiy tushunishga ta’sir qilmaydigan ba’zi xatolarga ishora qiladi. 2) Bir qarashda ko‘rinib turadigan butun jumlagacha ta’sir ko‘rsatadigan aniq xatolar va grammatik jihatdan hech qanday muammo bo‘lmagan, lekin kontekstda qo‘llab bo‘lmaydigan yashirin xatolar.

3) So‘zlovchining asl niyatini ifoda etmaydigan semantik xatolar, nutqning uyg‘unlik tamoyillarini buzuvchi nutq xatolari, so‘zlovchining shaxsi, mavqei yoki munosabatlariga mos kelmaydigan yoki biror kishi bilan gaplashayotganda kommunikativ vaziyat mavzusiga mos kelmaydigan pragmatik xatolar.

Vaqt-miqdor to‘liqlovchilarini qo‘llashda yo‘l qo‘yiladigan xatolar.

Fe‘l to‘ldiruvchini olib qo‘llanilganda yoki fe‘l 离合词 (ajralib birikuvchi so‘z) bo‘lgan vaqtda yo‘l qo‘yiladigan xatolar

- 1) 在北京大学，我学习中国文学三年。
- 2) 在内蒙古草原旅游时，我坐火车八个小时
- 3) 因为学生很多，所以我们等公交车一个小时。
- 4) 来中国以前，我在撒马尔罕国立外国语学院学汉语两年。
- 5) 昨天晚上他打乒乓球两个多小时。
- 6) 我生病了两个星期。
- 7) 我抽烟了五年，居然戒了。
- 8) 晚上在公园里我跟李娜谈话了半天。

Yuqorida keltirilgan misollardan ularning orasida umumiy jihat mavjudligini ko‘rishimiz mumkin, ya‘ni ularning barchasida “动词+宾语+时量” tuzilishi mavjud, “学习中国文学三年、坐火车八个小时、等公交车一个小时” kabilarning barchasi shu strukturaga tegishli va bir turdagi xato mavjud.

Bu turdagi gaplarda qo‘llanilgan fe‘ldan keyin to‘ldiruvchi kelgan bo‘lib, fe‘llarning to‘ldiruvchi olish yoki olmasligi vaqt-miqdor to‘liqlovchili gapning tuzilishiga katta darajada ta‘sir qiladi. Fe‘l to‘ldiruvchi olmagan vaqtda yoki fe‘l 离合词 (ajralib birikuvchi so‘z) bo‘lib kelmaganda, faqatgina 主语+动词+时量补语 formula asosida gap quriladi. Masalan: 我每天学习两个小时。Semantik jihatidan sevimli mashg‘ulot, odatni ifodalab kelgan vaqtda ham yuqoridagi formula asosida ifodalanadi. Boshqa tomondan fe‘l to‘ldiruvchi olmasa hamda davomiylik ifodalansa, vaqt-miqdor to‘liqlovchili gapning shakli “主语+动词+了+时量补语” ga o‘zgaradi. Masalan “我等了一个小时。/我睡了八个小时”.

Agar gapda qo‘llanilgan fe‘l to‘ldiruvchi olsa yoki fe‘l 离合词 (ajralib birikuvchi so‘z) bo‘lsa, vaqt-miqdor to‘liqlovchili gapning shaklida o‘zgarish sodir bo‘ladi. Fe‘l to‘ldiruvchi va yana to‘liqlovchini ham olsa, undan keyin fe‘l takror holatda qo‘llaniladi. Bu esa quyidagicha formula asosida tashkil topadi: “主语+动词+宾语+动词+了+时量补语” yoki “主语+①动词+了+时量补语+的+宾语”. Yuqorida keltirilgan 1-5 misollarni quyidagicha o‘zgartirish lozim bo‘ladi.

1) 在北京大学, 我学习中国文学三年。 / 在北京大学, 我学了三年的中国文学。

2) 在内蒙古草原旅游时, 我坐火车八个小时。 / 在内蒙古草原旅游时, 我坐了八个小时的火车。

3) 因为学生很多, 所以我们等公交车一个小时。 因为学生很多, 所以我们等了一个小时的公交车。

4) 来中国以前, 我在撒马尔罕国立外国语学院学汉语三年。 / 来中国以前, 我在撒马尔罕国立外国语学院学了两年的汉语。

5) 昨天晚上他打乒乓球两个多小时。 / 昨天晚上他打了两个多小时的乒乓球。

Gapda fe'l to'ldiruvchi olgan vaqtda vaqt-miqdor to'liqlovchili gapning shakli ikki xil ko'rinishda bo'lishi mumkin. Fe'l 离合词 (ajralib birikuvchi so'z) bo'lsa, masalan 6-8 gaplarda keltirilgan “生病、抽烟、谈话”, bular fe'l-to'ldiruvchili tuzilishga ega bo'lib, ajratilishi mumkin. Bunda fe'l sintaktik xususiyatga ega bo'ladi, shuning uchun dinamik yordamchi so'z “了” fe'ldan keyin qo'llanilishi kerak. Bu vaqtda vaqt-miqdor to'liqlovchili gapning shakli “主语+动词+了+时量补语+(的)+宾语” ga o'zgaradi. Masalan:

6) 我生了两个星期(的)病。

7) 我抽了五年(的)烟, 居然戒了。

8) 晚上在公园里我跟李娜谈了半天的话。

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Xitoy tilini chet tili sifatida o'rganayotgan filolog talabalarning bunday xatolarga yo'l qo'yishining asosiy sababi, vaqt-miqdor to'liqlovchisining qo'llanilishini to'g'ri mulohaza qila olishmaganligidandir. Chunki fe'l 离合词 (ajralib birikuvchi so'z) bo'lgan vaqtda yoki fe'l to'ldiruvchi olgan vaqtda vaqt-miqdor to'liqlovchisining aniq o'rnini o'zlashtirib olmaganligidan ko'plab xatolar yuzaga keladi.

Bunday vaziyatda xatolarni quyidagi metodlar orqali kamaytirish mumkin bo'ladi. Birinchi metod, dars jarayonida talabalarga tushunarli bo'lgan soda gaplar orqali gaplar tuzish yo'li bilan tushuntirib berish, ya'ni o'qituvchi misolni o'rtaga tashlaydi, talabalar esa o'zlari qoidani tushunib yetishi kerak bo'ladi. Yoki gap qurilish formulasini taqdim qilish orqali talabalarga gaplar tuzdirish. Bu induksiya va deduksiya orqali chiqarilgan xulosa hisoblanadi. Ikkinchi metod, o'quvchilarning mashg'ulot hajmini oshirish, darsda ularning ishtiyoqini to'liq uyg'otish,

o‘quvchilarga faol so‘zlash va mashq qilish, darsdan so‘ng esa gaplarga taqlid qilish vazifasini berish kerak bo‘ladi.

Fe‘l davomiylikni ifodalab kelganda vaqt-miqdor to‘liqllovchisining o‘rni.

- 1) 小王听着音乐好几个小时了。
- 2) 小李走了以后,我呆呆地站着一会儿。
- 3) 我看着很久,也想着很久。
- 4) 我上午在那儿等着半个多小时。
- 5) 昨天妈妈批评孩子的时候,她哭着半天。
- 6) 房子里的电话响着好长时间,小王居然没醒来。

Yuqorida keltirilgan gaplarni tahlil qilish orqali, bilishimiz mumkinki, barcha gapda davomiylikni ifodalab kelivchi dinamik yordamchi so‘z “着” qo‘llanilgan. Lekin berilgan ushbu gaplarning barchasi notog‘ri. Gapda qo‘llanilgan “站、听、响、想、看、等、笑” larning barchasi davomiylik xususiyatiga ega. Gapda vaqt-miqdor to‘liqllovchisi qo‘llanilgan vaqtda, fe‘ldan keyin dinamik yordamchi so‘zlar “了”, “过” qo‘llanilishi mumkin, lekin “着” qo‘llanilmaydi. Bunda “听了好几个小时” yoki “听过好几个小时” bo‘lishi mumkin, lekin “听着好几个小时” tarzida qo‘llanilmaydi. Chunki xitoy tilida “动词+着+时量补语” gap strukturasi mavjud emas. Shuning uchun yuqorida keltirilgan gaplarning barchasi noto‘g‘ri hisoblanadi. Qachonki biz “听过几个小时” va “听了好几个小时” deb aytgan vaqtimizda, bu yerdagi “听” butun jarayondagi muayyan harakatdir. “了” va “过” esa yaxlit jarayondagi aniq harakatning rasmiy belgilaridir. Chunki bu yerda ta’kidlanib kelinayotgan narsa bu butun jarayondir. Demak qatnashgan fe‘llar butun jarayon talablariga javob berishi kerak. Shuning uchun qancha davom etganilini ifodalsh uchun vaqt-miqdor to‘liqllovchilari qo‘llaniladi. Biroq, “动词+着” bu talabga javob bermaydi. “着” butun jarayonning emas, balki ma’lum bir qismiga qaratilgan.

Shundan kelib chiqib yuqoridagi gaplarni quyidagicha o‘zgartiramiz:

- 1) 小王听了音乐好几个小时了。
- 2) 小李走了以后,我呆呆地站了一会儿。
- 3) 我看了很久,也想了很久。
- 4) 我上午在那儿等了半个多小时。
- 5) 昨天妈妈批评孩子的时候,她哭了半天。
- 6) 房子里的电话响了好长时间,小王居然没醒来。

Bu xatolarning kelib chiqish sababi maqsadli til bilimlarini umumlashtirish bilan bog'liq. Xorijiy mamlakatlarda "着" ni o'rgangach, ular "着" fe'l va sifatlardan keyin ish-harakatning davom etayotganini yoki holat davom etayotganini bildirish uchun qo'llanilishini bilishadi, shuning uchun ular davomiy ma'noni anglatar ekan, “着” dan foydalanish kerak deb o'ylashadi. Bu noto'g'ri, chunki vaqt-miqdor to'liqlovchisi butun jarayon davomida o'tadigan harakat miqdorini bildiradi, “着” esa harakat jarayonining o'rtasida faqat ma'lum bir qismga e'tibor qaratadi va butun jarayonga ishora qilmaydi. Shuning uchun “着” vaqt miqdor to'liqlovchilari bilan bir vaqtda qo'llanilmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, vaqt-miqdor to'liqlovchisi va xato gaplar tahlili o'rganuvchiga birinchi navbatda ushbu ikki masala bo'yicha nazariy tushunchaga ega bo'lish imkonini beradi. Xatolar tahlili nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, xitoy tilini chet tili sifatida o'rganuvchilar vaqt-miqdor to'liqlovchisini o'rganish jarayonida yo'l qo'yadigan xatolar, asosan vaqt-miqdor to'liqlovchisining gap strukturasi hamda “着” bilan bir vaqtda kelmasligi bilan bog'liq. Bundan tashqari fe'l to'ldiruvchi olgan vaqtda yoki fe'l 离合词 (ajralib birikuvchi so'z) bo'lib kelganda xatoga yo'l qo'yishadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. 现代汉语实用语法分析。清华大学出版社，北京-2012年。
2. 陆庆和《实用对外汉语教学语法》，北京大学出版社，北京-2006年。
3. 实用现代汉语语法。商务印书馆，北京-2004年。
4. 汉语语法百项讲练(初中级)。北京语言大学出版社，北京-2011年。
5. 外国人实用汉语语法。北京语言大学出版社，北京-2008年。
6. 杨玉玲《现代汉语语法答问》，北京大学出版社，北京-2011年。
7. 宾语和补语。黑龙江人民出版社，哈尔滨-1985年。
8. 汉语语法教程。北京语言大学出版社，北京-2002年。
9. 张百慧 对外汉语中的时量补语教学研究 重庆 重庆大学,2015:20-26.
10. 周小兵 外国人学汉语语法偏误研究 北京 北京语言大学出版社, 2010年
11. Тухтасинов, И. М. (2011). Лингвокультурологические и гендерные особенности сложных слов в художественном тексте (на материале английского и узбекского языков). Автореф. дисс.... канд. филол. наук. Ташкент: УзГУМЯ.

12. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Modern views on the problem of distance and traditional methods of teaching Italian language in higher education institutions. *Society and Innovation*, 2(2), 111-117.
13. Tukhtasinov, I. M., Muminov, O. M., & Khamidov, A. A. (2017). *The days gone by*. Novel by Abdulla Qodiriy. Toshkent.
14. Tukhtasinov, I. M. (2018). The structure of the phenomenon of equivalence and its importance for translation strategies. In *Modern Romano-German linguistics and new pedagogical technologies in language teaching, Materials of the Republican scientific-practical conference*, Samarkand.
15. Тухтасинов, И. М. (2018). Развитие профессиональной компетенции на основе эквивалентности при подготовке переводчиков.
16. Tukhtasinov, I. M. (2017). Discursive approach in the training of translators. In *Mat. International scientific and creative forum "Youth in science and culture of the XXI century"*. Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture (pp. 229-231).
17. Тухтасинов, И. М. (2012). Национально-культурная специфика сложных слов, выражающих внешность и характер человека, в английском и узбекском языках. *Вестник Челябинского государственного университета*, (2 (256)), 122-125.
18. Тухтасинов, И., & Хакимов, М. (2021). Современные взгляды на проблему дистанционного и традиционного методов обучения итальянскому языку в высших учебных заведениях. *Общество и инновации*, 2(2), 111-117.
19. Тухтасинов, И. М. (2017). Дискурсивный подход в обучении переводчиков. In *Научные школы. Молодежь в науке и культуре XXI в.* (pp. 229-231).
20. Тухтасинов, И. (2021). Таржимоннинг касбий компетенцияси ва фаолият функциялари. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (3 (80)), 5-10.
21. Тухтасинов, И. (2021). Особенности формирования учебного процесса в системе высшего образования Узбекистана в условиях Covid-19. *Иностранная филология: язык, литература, образование*, (1 (78)), 11-18.
22. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In *Язык и культура* (pp. 226-231).
23. Тухтасинов, И. М. (2020). Лингвокультурологический аспект обучения переводческой компетенции. In *Язык и культура* (pp. 226-231).
24. Tuhtasinov, I. M. and Lutfilloeva, Fahriniso, *The Japanese Language Teaching Technologies Based on Computer Simulation Models* (September 10, 2019). Available at SSRN: <https://ssrn.com/abstract=3458780>

25. Тухтасинов, И. М. (2019). ВНЕДРЕНИЕ ИННОВАЦИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ ТЕОРИИ И ПРАКТИКИ ПЕРЕВОДА. In Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития (pp. 111-113).
26. Тухтасинов, И. М. (2018). Методика выявления эквивалентности слов разносистемных языков в процессе перевода. Бюллетень науки и практики, 4(7), 539-544.
27. Тухтасинов, И. (2017). Таржимада маданияй мослашиш ҳолатлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(2 (63)), 5-9.
28. Тухтасинов, И. (2017). Жамият тарихининг ҳозирги босқичида таржимонлар тайёрлашнинг асосий муаммолари. Иностранная филология: язык, литература, образование, 2(4 (65)), 20-24.
29. Тухтасинов, И. (2016). Таржима назариясида тиллараро эквивалентлик тушунчаси ва унинг тадқиқи. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 26-30.
30. Тухтасинов, И. М. СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ. ББК 74.48 Р 76, 314.
31. Djurayev, D. M. Linguo-cultural Approach to Teaching Foreign Languages. International Journal on Integrated Education, 3(12), 240-241.
32. Джураев, Д. (2021). ХИТОЙ ТИЛИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБА ХАРАКТЕРИНИНГ АҲАМИЯТИ. АКТУАЛЬНОЕ В ФИЛОЛОГИИ, 1(1).
33. Джураев, Д. (2020). Талабаларни таълим жараёнида хитой тилига ўқитиш самарадорлигини ошириш методлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (1 (74)), 124-127.
34. Джураев, Д. М. (2017). ИСТОРИЧЕСКИЕ ПРЕДПОСЫЛКИ ОБУЧЕНИЯ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ. In Актуальные вопросы преподавания китайского и других восточных языков в XXI в. (pp. 84-88).
35. Dilshod, D. (2012). 乌兹别克斯坦与中国重要节日的对比 (Master's thesis, 新疆大学).
36. Турниязов, Н. К. (1985). Принципы формирования синтаксической структуры сложноподчинённого предложения в узбекском языке/-Ташкент. Укитувчи.-1985,-с22.
37. Turniyozov, N., & Rahimov, A. (2006). O'zbek Tili [M].
38. Турниёзов, Н. (1998). Назарий грамматикадан очерклар. Самарқанд: СамДЧТИ, 998, 48.

-
39. Сулейманова, Н. М., & Турниязов, Н. К. (2018). О ФОРМИРОВАНИИ СТРУКТУРНОЙ СХЕМЫ В ЧЕЛОВЕЧЕСКОМ СОЗНАНИИ. In Научные школы. Молодёжь в науке и культуре XXI века (pp. 39-42).
40. Турниёзов, Н. (2016). Синтагматик муносабат ва дискурс шаклланишига доир баъзи қайдлар. Иностранная филология: язык, литература, образование, 1(4), 10-13.